

LEGAL PROBLEMS AND PROSPECTS OF EVALUATING EVIDENCE IN ADMINISTRATIVE COURT PROCEEDINGS

Ismoilov Ozodbek Hasan o'g'li

Avloqulov Azimbek Olim o'g'li

Students, Faculty of Law Termiz State University

Abstract. This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the institution of evidence evaluation in administrative court proceedings of the Republic of Uzbekistan. It examines the procedures for collecting, verifying, and evaluating evidence in administrative courts, as well as the judge's decision-making based on inner conviction. The study highlights the legal assessment of evidence according to criteria such as relevance, reliability, and sufficiency.

Furthermore, the article analyzes the role of written and electronic evidence in resolving administrative disputes, the active role of the court, and the challenges encountered in practice. Based on a comparative analysis with the experience of foreign countries, scientifically grounded proposals are developed to improve the system of evidence evaluation in administrative proceedings.

Keywords: administrative court proceedings, evaluation of evidence, judicial evidence, principle of inner conviction, relevance of evidence, reliability of evidence, sufficiency of evidence, administrative procedural law, written evidence, electronic evidence, witness testimony, expert opinion, judicial practice, verification of evidence, court decision, administrative disputes, judicial reform, rule of law, judicial independence, principle of impartiality, free evaluation of evidence, procedural guarantees.

MA'MURIY SUD ISH YURITUVIDA DALILLARNI BAHOLASHNING
HUQUQIY MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Ismoilov Ozodbek Hasan o'g'li

Avloqulov Azimbek Olim o'g'li

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining ma'muriy sud ish yurituvida dalillarni baholash instituti ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Ma'muriy sudlarda dalillarni to'plash, tekshirish va baholash tartibi, sudyaning ichki ishonchga asoslangan qaror qabul qilishi hamda dalillarning tegishliligi, ishonchliligi va yetarliligi kabi mezonlar asosida ularni huquqiy baholash masalalari yoritiladi. Shuningdek, ma'muriy nizolarni hal etishda yozma va elektron dalillarning o'rni, sudning faol roli hamda amaliyotda uchraydigan muammolar tahlil qilinadi. Xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil asosida ma'muriy sud ish yurituvida dalillarni baholash tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Ma'muriy sud ish yurituvi, dalillarni baholash, sud dalillari, ichki ishonch prinsipi, dalillarning tegishliligi, dalillarning ishonchliligi, dalillarning yetarliligi, ma'muriy protsessual huquq, yozma dalillar, elektron dalillar, guvoh ko'rsatmalari, ekspert xulosasi, sud amaliyoti, dalillarni tekshirish, sud qarori, ma'muriy nizolar, sud islohoti, huquqiy davlat, qonun ustuvorligi, sud mustaqilligi, xolislik prinsipi, dalillarni erkin baholash, protsessual kafolatlar.

Bugungi kunda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida sud-huquq tizimining samarali ishlashi hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli sud-huquq islohotlari natijasida sud hokimiyatining mustaqilligi mustahkamlanib, fuqarolarning adolatga erishish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayib bormoqda. Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan inson huquq va erkinliklari amalda ta'minlanishi esa bevosita sud tizimining samarali faoliyati bilan bog'liqdir.

Shu jihatdan qaraganda, ma'muriy sud ish yurituvining joriy etilishi fuqarolarning

davlat organlari va mansabdor shaxslarning qarorlari hamda harakatlari ustidan sud tartibida shikoyat qilish va o'z huquqlarini himoya qilish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Bu esa o'z navbatida davlat boshqaruvi organlari faoliyatining qonuniyligini ta'minlash, ularning qarorlari ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqarolar va davlat o'rtasidagi huquqiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Natijada, huquqiy davlat tamoyillarini hayotga tatbiq etishda ma'muriy sudlar muhim institut sifatida shakllanib bormoqda.

Ma'muriy sud ish yurituvida dalillarni baholash instituti sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli bo'lishini ta'minlovchi muhim protsessual bosqich hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ish yurituv kodeksiga muvofiq, ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan har qanday faktik ma'lumot dalil sifatida e'tirof etiladi¹. Ushbu ma'lumotlar yozma hujjatlar, elektron axborotlar, guvoh ko'rsatmalari, ekspert xulosalari va boshqa qonunda nazarda tutilgan vositalar shaklida bo'lishi mumkin.

Dalillarni baholash esa sud tomonidan ish bo'yicha taqdim etilgan barcha ma'lumotlarni har tomonlama o'rganish, ularning ishonchliligi, tegishliligi, yetarliligi va o'zaro bog'liqligini aniqlash jarayonidir. Kodeksga ko'ra sudya dalillarni ichki ishonch asosida baholaydi². Ichki ishonch sudyaning shaxsiy fikri emas, balki dalillarni mantiqiy va huquqiy tahlil qilish natijasida shakllanadigan xulosadir.

Dalillarni baholash jarayonida sud faqat qonuniy yo'l bilan olingan va ish uchun ahamiyatli bo'lgan ma'lumotlarni qabul qiladi³. Noqonuniy olingan dalillar yuridik kuchga ega emas va rad etiladi. Shuningdek, sud dalillarni alohida emas, balki ularning yig'indisi asosida baholaydi, ya'ni har bir dalil boshqa dalillar bilan bog'liq holda tahlil qilinadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ish yurituv kodeksi, dalil tushunchasiga oid normalar.

² O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ish yurituv kodeksi, 73-modda

³ O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ish yurituv kodeksi, 71-modda

Ma'muriy sud ish yurituvining muhim xususiyatlaridan biri sudning faol rolidir. Kodeksga muvofiq sud zarur hollarda qo'shimcha dalillarni talab qilishi, ularni tekshirishi va aniqlashtirishi mumkin. Bu esa ma'muriy sud ishlarini fuqarolik protsessidan farqlab turadi va fuqarolarning huquqlarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi.

Dalillarni baholashda bir nechta asosiy prinsiplar amal qiladi. Xolislik prinsipi sudning har ikki tarafga teng munosabatda bo'lishini talab qiladi. To'liqlik prinsipi ishdagi barcha dalillarni to'liq o'rganishni nazarda tutadi. Qonuniylik prinsipi faqat qonuniy yo'l bilan olingan dalillarni qabul qilishni belgilaydi. Mantiqiylik prinsipi esa dalillar o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etib, ularni yagona tizimga keltirishni talab qiladi.

Amaliyotda dalillarni baholash jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Davlat organlari tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar ba'zan to'liq bo'lmaydi yoki yetarli darajada asoslanmagan bo'ladi. Elektron dalillarni tekshirish texnik jihatdan murakkab bo'lib, ularning haqiqiylikini aniqlash maxsus bilim va vositalarni talab qiladi. Bundan tashqari, sud amaliyotida dalillarni baholash bo'yicha yagona yondashuvning to'liq shakllanmaganligi ham turli farqlarga olib keladi.

Xorijiy davlatlar tajribasi ma'muriy sud ish yurituvida dalillarni baholash institutining rivojlanish darajasi va yondashuvlari turlicha ekanligini ko'rsatadi. Bunda Germaniya, Fransiya hamda Anglo-sakson huquq tizimi alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ular ma'muriy sudlarda dalillarni baholash mexanizmini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Germaniya Federativ Respublikasida ma'muriy sudlar tizimi eng rivojlangan modellardan biri hisoblanadi. Bu tizimda "erkin dalillarni baholash prinsipi" amal qiladi, ya'ni sudya dalillarni oldindan belgilangan qat'iy qoidalar asosida emas, balki ichki ishonch, huquqiy mantiq va dalillarning o'zaro bog'liqligiga tayangan holda mustaqil

baholaydi. Germaniya amaliyotida sud faqat rasmiy hujjatlarga tayanib qolmasdan, balki ishning barcha faktik holatlarini kompleks tarzda o'rganadi. Bu esa sud qarorlarining asosli va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

Fransiya Respublikasida ma'muriy sud tizimi "Conseil d'État" instituti orqali shakllangan bo'lib, u ma'muriy qarorlarning qonuniyligini nazorat qilishda yuqori darajadagi vakolatga ega. Fransiya tajribasida sudlar faqat hujjatlarni tekshirish bilan cheklanmay, balki ma'muriy aktning qabul qilinish sabablari, asoslantirilishi va fuqarolar huquqlariga ta'sirini ham chuqur tahlil qiladi. Bu tizimda dalillarni baholash ma'muriy qarorning huquqiy va faktik asoslarini har tomonlama o'rganishga yo'naltirilgan.

Anglo-sakson huquq tizimida, xususan Buyuk Britaniya va AQShda, ma'muriy nizolarni hal qilish adversarial tizim asosida amalga oshiriladi. Bu modelda dalillarni baholash jarayoni tomonlarning faol ishtiroki va sud jarayonidagi bahs-munozaralar orqali shakllanadi. Sudya esa jarayonni boshqaruvchi va taqdim etilgan dalillarni bevosita tahlil qiluvchi faol subyekt sifatida ishtirok etadi. Ushbu tizimda dalillarning ishonchiligi, ularning sud majlisida tekshirilishi va tomonlarning teng huquqliligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, Germaniya va Fransiya kabi kontinental huquq tizimlarida sudlar ma'muriy organlar qarorlarini chuqur huquqiy va faktik tahlil qilishga e'tibor qaratadi, Anglo-sakson tizimida esa dalillarni baholash jarayoni sud muhokamasidagi tortishuvlar asosida shakllanadi. Shunga qaramay, barcha huquqiy tizimlarda umumiy tamoyil mavjud bo'lib, u ham bo'lsa dalillarni xolis, mustaqil va adolatli baholash orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishdir.

Ma'muriy sud ish yurituvida dalillarni baholash jarayonida bir qator huquqiy va amaliy muammolar mavjud bo'lib, ular sud qarorlarining sifati va adolatliligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, dalillarni baholash mezonlarining ayrim jihatlari

amaliyotda yetarli darajada birxillashtirilmagan. Sudlar tomonidan “ichki ishonch” prinsipi turlicha talqin qilinishi natijasida bir xil holatlarda turlicha sud qarorlari qabul qilinishi mumkin.

Ikkinchidan, ayrim ma'muriy ishlar bo'yicha davlat organlari tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar to'liq va ishonchli bo'lmasligi dalillarni to'g'ri baholashga to'sqinlik qiladi. Bu esa sudning obyektiv haqiqatni aniqlash imkoniyatini cheklaydi.

Uchinchidan, elektron dalillardan foydalanish va ularni tekshirish masalasi hali ham murakkab bo'lib qolmoqda. Raqamli ma'lumotlarning haqiqiylikni aniqlash, ularning buzilmaganligini tekshirish uchun maxsus texnik va huquqiy mexanizmlar yetarli darajada rivojlanmagan.

To'rtinchidan, ayrim hollarda sudning faol rolini amalga oshirishda amaliy cheklovlar mavjud bo'lib, bu dalillarni to'liq tekshirish imkoniyatini kamaytiradi. Natijada ayrim ishlar bo'yicha qarorlar faqat taqdim etilgan materiallar bilan cheklanib qolishi mumkin.

Mazkur sohadagi istiqbollar sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va adolatli sudlovni ta'minlashga qaratilgan. Birinchi navbatda, dalillarni baholash bo'yicha yagona sud amaliyotini shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu sud qarorlarining barqarorligi va birxilligini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, raqamlashtirish jarayonlarini kengaytirish orqali elektron dalillar bilan ishlash tizimini rivojlantirish zarur. Bu sud jarayonlarini tezkor, shaffof va samarali qilishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, sudyalarning malakasini oshirish, ayniqsa dalillarni baholash metodologiyasi va zamonaviy huquqiy yondashuvlar bo'yicha bilimlarini kuchaytirish dolzarb hisoblanadi.

To'rtinchidan, xorijiy davlatlar tajribasini, xususan Germaniya va Fransiya ma'muriy sud tizimlaridagi dalillarni erkin baholash tajribasini o'rganish va milliy

tizimga moslashtirish istiqbolli yoʻnalishlardan biridir.

Maʼmuriy sud ish yurituvu kodeksida belgilangan dalillarni toʻplash, tekshirish va baholashga oid normalar sudyaning ichki ishonchi, xolislik va qonuniylik tamoyillariga asoslanishini koʻrsatadi. Bu esa sud jarayonida har bir ish boʻyicha obyektiv haqiqatni aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, dalillarni kompleks baholash prinsipi sud qarorlarining bir tomonlama emas, balki har tomonlama asoslangan boʻlishini taʼminlaydi.

Amaliy tahlillar shuni koʻrsatadiki, mazkur sohada ayrim muammolar, xususan elektron dalillarni baholash, sud amaliyotining birxilligi va davlat organlari tomonidan taqdim etiladigan maʼlumotlarning toʻliqligi bilan bogʻliq masalalar mavjud. Biroq sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, raqamlashtirish jarayonlari hamda xorijiy tajribani oʻrganish ushbu muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etish imkonini bermoqda.

Qisqa xulosa va takliflar

Maʼmuriy sud ish yurituvu dalillarni baholash instituti sud qarorlarining qonuniy va asosli boʻlishini taʼminlovchi asosiy protsessual mexanizmlardan biridir. Sud dalillarni ichki ishonch, xolislik va qonuniylik tamoyillari asosida baholashi orqali ish boʻyicha obyektiv haqiqatni aniqlaydi. Amaliyotda esa dalillarni baholashning birxilligi, elektron dalillarni tekshirish va ayrim hujjatlarning yetarli darajada asoslanmaganligi kabi muammolar uchrab turadi. Shunga qaramay, sud-huquq tizimidagi islohotlar ushbu institutning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Maʼmuriy sud ish yurituvu dalillarni baholash institutini yanada takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

Birinchi, dalillarni baholash boʻyicha sud amaliyotini birxillashtirish zarur boʻlib, bu sud qarorlarining barqarorligi va oldindan bashorat qilinadigan boʻlishini taʼminlaydi;

Ikkinchidan, elektron dalillar bilan ishlash tizimini rivojlantirish, ularni tekshirishning aniq texnik va huquqiy mexanizmlarini joriy etish lozim;

Uchinchidan, sudyalarning va huquqshunos kadrlarning dalillarni baholash sohasidagi bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish maqsadga muvofiqdir;

To'rtinchidan, xorijiy davlatlar, xususan Germaniya va Fransiya tajribasini chuqur o'rganib, milliy sud amaliyotiga mos ilg'or yondashuvlarni tatbiq etish kerak.

Umuman olganda, ushbu takliflar ma'muriy sud ish yurituvida dalillarni baholash jarayonining samaradorligini oshirishga va fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ish yurituv kodeksi. – Toshkent, 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenum qarorlari to'plami. – Toshkent, 2019–2024.
3. Rustamboyev M.X. Ma'muriy protsessual huquq. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021
4. Ikramov Sh.T. Ma'muriy huquq va protsess. – Toshkent: TDYU, 2020.
5. Qosimov A.A. Ma'muriy huquq (umumiy qism). – Toshkent, 2019.
6. European Court of Human Rights Case-Law on Fair Trial and Evidence Assessment. – Strasbourg, 2023.
7. Mamatqulov A. Ma'muriy sudlarda dalillarni baholash masalalari. // Huquq va Boshqaruv jurnali, 2023, №2.